



**SIRDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**SIRDARYO VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQARISHI**
2024- YIL YANVAR-MART OYLARI




Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2024- yil yanvar-mart oylarida)


2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning jismoniy va yuridik shaxslari tomonidan 4784,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash sanoati hissasiga toʻgʻri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 57,9 % ni tashkil etdi.




B

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



C

Ishlab chiqaradigan sanoat



D


Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash



E

Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilish


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 18,1 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12,7 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Ishlab chiqaradigan sanoat

mln. so'm

Yanvar-mart

FHI,% da



2024- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1970,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 41,2 % ni tashkil etdi.


2023- yil yanvar-mart

51,2 %

2024- yil yanvar-mart

41,2 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,5 % ni (2023- yilning yanvar-mart oylarida – 3,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 2,2 % (3,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 18,6 % (22,4 %) va quyi texnologiyalisi – 73,7 % (70,4 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 5,3 % (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 120,2 %), boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 9,5 % (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 122,5 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 40,9 % (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 124,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 30,0 % (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,8 % (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,7 %) ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da *


Yirik shoxli qoramollar uchun uzuqa




Kepak




Tarkibida alkaloidlar bo‘lgan yoki bo‘lmagan, lekin gormonlar yoki antibiotiklar bo‘lmagan medikamentlar



Yumshoq bug‘doy va spelta uni




Sellyuloza




* Yanvar-mart oylari yirik korxonalar bo‘yicha


Aroq



Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar



Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar



Paxta tolasi



Paxta chigiti



Kalava ip



2024- yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 8,4 ming tonna paxta, bint va shu kabi mahsulotlar (0,9 % kam) hamda 7,9 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (26,7 % ga kam) ishlab chiqarilib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan past o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-mart	2024- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Don ekinlaridan hosil bo'lgan kepek, tonna	4052	3301	-751
Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar , tonna	406,0	352,4	-53,6
Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar, ming t.	4,3	2,8	-1,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	10,8	7,9	-2,9
Paxta tolasi, ming t.	8,5	8,4	-0,1

Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish

2023- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati ulushi 0,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 3,1 martaga ko'paygan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,1 % gacha ko'paydi, fizik hajm indeksi esa, 66,2 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 2,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2023- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 7,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 87,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 22,5 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 187,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2023- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 110,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,2 % ga o'sib, ishlab chiqarish hajmi 578,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2023- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 110,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 154,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 13,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2023- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 33,8 % ni, uning fizik hajm indeksi 138,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 33,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 2,3 % ga kamayib, ishlab chiqarish hajmi 659,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2023- yil ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 76,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,4 %, fizik hajm indeksi 3,5 martaga ko'payib ishlab chiqarish hajmi esa 87,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023- yil ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 92,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 14,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish




2023- yil yanvar-mart oylarida, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 88,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,3 % ni, fizik hajm indeksi 120,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 104,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2023- yil yanvar-mart oylarida, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 106,4 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,7 % ni, fizik hajm indeksi 123,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 33,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2774,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 57,9 %) ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 118,1 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-mart	2024- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	5033,9	4453,5	-580,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	39,7	37,5	-2,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 26,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 %) ni tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-mart	2024- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	8,9	19,9	11,0
Shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	3,5	5,5	2,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 20,6 % ga kamaygan hamda chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 79,4 % ga kamayishi kuzatildi.

Sirdaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Shirin shahriga to'g'ri kelib, 53,4 % ni, shuningdek, Sirdaryo tumani 15,5 % ni, Boyovut tumani esa 9,0 % ni va Guliston shahri 5,8 % ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyati

2022- yil

2 816,8 mlrd. so'm

2023- yil

3 840,0 mlrd. so'm

2024- yil

4 784,9 mlrd. so'm



2022- yil


113,7 %

2023- yil

104,2 %

2024- yil

107,1 %




FHI, % da

mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Shirin shahri (131 654,5 ming so'm), Sirdaryo (5392,9 ming so'm) tumanlari o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (5223,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Sirdaryo viloyati

2022- yil

3 197,9 ming so'm

2023- yil

4 272,8 ming so'm

2024- yil

5 223,7 ming so'm



01

2022- yil

111,3 %

02

2023- yil

102,1 %

03

2024- yil


105,1 %

o'sish sur'ati

ming so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1312,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 27,4 % ni tashkil etdi.



Sirdaryo viloyati

2022- yil

807,5 mlrd. soʻm

2023- yil

1 108,8 mlrd. soʻm

2024- yil

1 312,6 mlrd. soʻm



2022- yil

117,5 %

2023- yil


138,2 %

2024- yil

118,4 %

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda viloyatimizda 1362 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 284 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy soning 20,9 %) Guliston shahriga, 221 tasi (16,2 %) Sirdaryo tumaniga, 157 tasi (11,5 %) Boyovut tumaniga, 139 tasi (10,2 %) Yangiyer shahriga va 127 tasi (9,3 %) Mirzaobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan



■ yangi tashkil etilgan
■ faoliyat yuritayotgan

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 47 ta loyiha bo'yicha 346,2 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 6,8 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2024- yilning yanvar-mart oylarida 126 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 30,9 % ga kamaygan. Shu bilan birga, 2023- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining 12,8 % ga kamayishi kuzatildi.